



KATTA VA KICHIK GURUHLAR PSIXOLOGIYASI

Norsafarova Nilufar Boybo'ri qizi

Saidova Mahzuna Farhod qizi

Shahrisabz davlat pedagogika institute talabalari

Psixologiyada guruhlar inson xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlar shakllanishida muhim o'rin tutadi. Guruhlar o'lchamiga qarab kichik va katta guruhlariga bo'linadi, ularning har biri o'ziga xos psixologik xususiyatlarga ega. Kichik guruhlar (do'stlar guruhi, oila, ishchi jamoa) yaqin munosabatlar, to'g'ridan-to'g'ri aloqa va yuqori darajadagi ijtimoiy ta'sir bilan ajralib turadi. Katta guruhlar esa (millat, siyosiy partiyalar, diniy guruhlar) ko'proq umumiy g'oya, ideologiya va rasmiy tuzilishga asoslanadi. Kichik guruhlar psixologiyasi: Emotsional yaqinlik, o'zaro ishonch va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash yuqori. Liderlik ko'proq norasmiy bo'ladi. Shaxsiy fikr va his-tuyg'ular muhim rol o'ynaydi. Katta guruhlar psixologiyasi: A'zolar o'rtasida bevosita aloqa cheklangan. Shaxsiy emas, balki umumiy g'oya asosida birlashadi. Nazorat tizimi va rasmiy liderlik kuchli. Guruh identifikatsiyasi kuchli bo'lsa-da, individual a'zolik hissi sustroq bo'lishi mumkin. Kichik va katta guruhlar psixologiyasi inson ijtimoiy hayotining turli jihatlarini aks ettiradi. Ularni to'g'ri tahlil qilish jamiyatda ijtimoiy uyg'unlik va samarali muloqotni ta'minlashga xizmat qiladi. Inson ijtimoiy mavjudot sifatida turli guruhlariga mansub bo'lib yashaydi. Bu guruhlar kichik yoki katta bo'lishi mumkin. Har bir guruh turi inson psixologiyasiga, uning xulq-atvoriga, qarorlariga va o'zini tutishiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Psixologiyada guruh o'lchami muhim ahamiyat kasb etib, bu omil orqali guruh ichidagi muloqot, boshqaruv, motivatsiya va o'zaro ta'sir shakllanadi.

1. Kichik guruhlar psixologiyasi: Kichik guruhlar – bu ikki yoki undan ortiq a'zolardan iborat bo'lib, ular o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri va barqaror muloqot mavjud bo'ladi. Misol sifatida oila, do'stlar jamoasi, kichik ishchi guruhlarini keltirish mumkin. *[Yo'ldosheva Sevinch Ravshan qizi. Kichik va katta guruhlar psixologiyasi.]*

Kichik guruhlarining psixologik xususiyatlari: Shaxsiy munosabatlar chuqur va hissiy jihatdan boy bo'ladi. Guruh a'zolari bir-birini yaxshi taniydi, shuning uchun empatiya, o'zaro ishonch yuqori. Guruhdagi qarorlar ko'proq konsensus asosida qabul qilinadi. Norasmiy liderlik keng tarqalgan bo'lib, liderlik ko'pincha tabiiy ravishda shakllanadi. Guruh bosimi va konformizm darajasi yuqori bo'lishi mumkin.

2. Katta guruhlar psixologiyasi

Katta guruhlar yuzlab, minglab yoki undan ortiq a'zolardan tashkil topgan bo'ladi. Bu guruhlarda barcha a'zolar bir-birini shaxsan tanimasligi mumkin. Misollar: xalq, etnik guruh, diniy jamoalar, siyosiy partiyalar. Katta guruhlarining psixologik xususiyatlari: Shaxsiy emas, balki umumiy qadriyatlar, maqsadlar yoki mafkura asosida birlashadi. Rasmiy tuzilma, nizom va liderlik tizimi mavjud. Bevosita emas, balki vositachilik (matbuot, yetakchilar) orqali muloqot amalga oshadi. A'zolik hissi kuchli bo'lsa-da, individual o'ziga



xoslik ba'zan yo'qoladi. Ko'pchilik fikri orqali boshqaruv samarali, biroq ba'zan manipulyatsiyaga moyil bo'ladi. [N.T.Muhammadiyev. *Ijtimoiy psixologiya. Toshkent "O'qituvchi"*–2008]

3. Guruhlararo farqlar va o'zaro ta'sir

Kichik guruhlar ichki mustahkamlik va hissiy yaqinlikni ifodalasa, katta guruhlar ijtimoiy tartib, tizim va identifikatsiyani belgilaydi. Inson ko'pincha bir necha guruhga a'zo bo'lib, ularning har birida o'zini har xil tutadi. Bu holat "ijtimoiy rol" tushunchasini keltirib chiqaradi. Kichik va katta guruhlar psixologiyasi insonning ijtimoiy hayotini to'liq anglashda muhim o'rin tutadi. Har ikki guruh turi jamiyatdagi barqarorlik, birlik va taraqqiyot uchun zarur. Psixologik yondashuv orqali bu guruhlarining tuzilishi, funksiyasi va insonga ta'siri chuqur o'rganilishi zarur. Psixologik ma'noda guruh – bu umumiy belgilar, faoliyat, muloqot hamda maqsadlar asosida birlashgan kishilar uyushmasidir. Umuman odamlar guruhi tashkil topishi uchun albatta, qandaydir umumiy maqsad yoki tilaklar, umumiy belgilar bo'lishi shart. Masalan, talabalar guruhi uchun umumiy narsalar ko'p (o'quv faoliyati, bilim olish, yoshlarga xos birliklar (o'spirin, yoshlar, ma'lum o'quv yurtida ta'lim olish istagi va hokazo). Ko'chada biror tasodif ro'y berganligi uchun to'plangan kishilar uchun ham umumiy bo'lgan narsa bor – bu qiziquvchanlik bo'lib o'tgan hodisaga guvohlik, unga umumiy munosabatdir. Guruhni alohida shaxslar tashkil etadi, lekin har bir guruh psixologiyasi uni tashkil etuvchi alohida shaxslar psixologiyasidan farq qiladi va o'ziga xos qonuniyatlarga bo'ysunadi. [M.Sharif. *Guruh va guruhlararo munosabatlar psixologiyasi. Toshkent "Navro'z"* –2021]. Ayni shu qonuniyatlarni bilish esa turli tipli guruhlarini boshqarish va ana shu guruhlarini tashkil etuvchilarni tarbiyalashning asosiy mezonidir. Guruhlar tarkibidagi odamlar soniga ko'ra katta va kichik guruhlariga bo'linadi. Psixologiyada ko'proq kichik guruhlar o'rganiladi. Uni necha nafar kishi tashkil etishi, necha nafar kishining hamkorlikdagi faoliyati ko'proq samara berishi masalasi amaliy ahamiyatga egadir. Ko'pchilik olimlar guruhning boshlang'ich nuqtasi sifatida miqdor jihatdan ikki kishini – diadani tan olishadi. Kichik guruhlar muammosi ijtimoiy psixologiyada eng yaxshi ishlangan va ko'plab ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan obyektlardandir. Bu muammoni tadqiq etishda olimlar o'z oldiga shunday masalani qo'yganlar, ya'ni, individ yakka holda yaxshi ishlaydimn yoki guruhda yaxshiroq samara beradimi, boshqa odamlarning yonida bo'lishi uning faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatadi. Shuni ta'kidlash lozimki, bunday sharoitlarda indvidlarning o'zaro hamkorligi emas, balki ularning bir vaqtda bir yerda birga bo'lganligi faktining ta'siri o'rganildi. Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, boshqalar bilan hamkorlikda bo'lgan individ faoliyatining tezligi oshadiMunosabatlardagi har qanday disbalanslar, ya'ni nomutanosibliklar ochiq holdagi ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Agar guruh a'zolarining soni toq bo'lsa, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar juft bo'lgan holdagidan ancha yaxshi bo'ladi. [Yo'ldosheva Sevinch Ravshan qizi. *Kichik va katta guruhlar psixologiyasi.*] Boshqaruv psixologiyasida odamlarni biror nimaga saylashda va umuman rasmiy tanlovlarda guruhdagi odamlar soni toq qilib olinadi. Shaxsning guruh tazyiqiga berilishi va bo'ysunishi ham guruh a'zolarining



soniga bog'liq. Guruh soni 4-5 kishi bo'lgunga qadar, uning ta'siri kuchayib boradi, lekin undan ortib ketgach, ta'sirchanlik kamayib boradi. Guruhni alohida shaxslar tashkil etadi, lekin har bir guruh psixologiyasi uni tashkil etuvchi alohida shaxslar psixologiyasidan farq qiladi va o'ziga xos qonuniyatlariga bo'ysunadi. Ayni shu qonuniyatlarni bilish esa turli tipli guruhlariga boshqarish va ana shu guruhlarini tashkil etuvchilarni tarbiyalashning asosiy mezonidir. Guruhlarning turlari ko'p, shuning uchun ham ularni turli olimlar turlicha klassifikatsiya qiladilar. Bizning nazarimizda, G.M.Andreyevaning "Ijtimoiy psixologiya" darsligidagi klassifikatsiya guruhlarining asosiy turlarini o'z ichiga qamrab olgan. U har qanday kishilar guruhini avvalo shartli va real guruhlariga bo'ladi. Real guruhlar aniq tadqiqot maqsadlarda to'plangan laboratoriya tipidagi hamda tabiiy guruhlariga bo'linadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Sharif. Guruh va guruhlararo munosabatlar psixologiyasi. Toshkent "Navro'z" – 2021
2. N.T.Muhammadiyev. Ijtimoiy psixologiya. Toshkent "O'qituvchi"–2008
3. Yo'ldosheva Sevinch Ravshan qizi. Kichik va katta guruhlar psixologiyasi.
4. Ashurova Sh. F. (2023) SOG'LOM PSIXOLOGIK TURMUSH TARZI TO'G'RISIDAGI TASVVURLARNING SHAKLLANISHI "Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari
<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8314/5746>